

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

2

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 2, 2025



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan
qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeve	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abdulhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayeve	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyev	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misir Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
S. Kurayim	<i>Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
A. Tohir	<i>Misir Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

Qoraboyev S. Pashtu tilidagi tarixiy romanlarda pashtunvolay tamoyillarining talqin etilishi.....	5
Mamatkulov O. Qiyomiddin Xodim hayoti va ijtimoiy faoliyati	17

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Abdurahmonova M. Urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar	34
Asqarova Sh. Stilistika yo‘nalishiining amaliy tilshunoslikdagi ahamiyati	42
Hou Yanli., Zhu Xingfei. Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People.....	47
Иванова А. Невербальные компоненты коммуникации в китайском языке: лингвокультурологический аспект.....	56
Jumaniyazov M. “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb” asarida fe‘llar va yuklamalarning tushum kelishigi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlari	74
Таджихужаева Ф. Семантический анализ персидского соматизма جان <i>jān</i> «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои.....	87
Davlatov Z. Inomiddinov H. Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usuli xususida	97

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Madraimov A., Eshmurodov B. Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari.....	104
Nayimov O. Ibn Khaldun and Power Dynamics: A Geopolitical Relevance of the Muqaddimah	115
To‘laganova Sh. Turkiy yozma yodgorliklar tilida juft so‘zlar.....	122
Mahmudov J. Pahlavon Mahmud: ilk manbalarda.....	134
Abdupattoxov J. O‘rta Osiyo Naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘i vakillarining manbalarda yoritilish masalalari (Shayx Muhammad Ma’sum – Shayx Habibulloh – So‘fi Olloyor	146
Salijanov G. Qadimgi va ilk O‘rta asrlarda Turon-Turkiston hududida savodxonlik hamda ta’lim tarixiga doir	161
Qobilova G. Роль «Корейской волны» в укреплении международного статуса Южной Кореи	172



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Alimov O. Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy megatrendlar: mintaqaviy integratsiyaning xalqaro-siyosiy va institutsional jihatlarini188	188
Kasimov M. Pokiston-Hindiston-Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta'siri.....216	216
Bo'ronov S. Qo'shtepa kanalining markaziy osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri196	196
Turdiyeva D. Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today205	205
Abdullaxaev A. Влияние международных санкций на развитие китайско-иранского стратегического партнерства214	214

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

Derya Soysal. Magtymguly Pyragy's Philosophy and Its Relevance to International Relations223	223
---	-----



**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK//
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //**
SOURCE STUDY AND HISTORIOGRAPHY

ASKARIY MADRAIMOV

Dotsent, PhD, TDSHU

ORCID: 0009-0000-2238-2888,

BAHODIR ESHMURODOV

Magistratura talabasi, TDSHU

Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari

Annotatsiya. Maqolada buyuk davlat arbobi va harbiy strateg Amir Temurning ko‘p sonli dushman qo‘shinlarini jangsiz yoki kam talafot bilan yengish maqsadida qo‘llagan ruhiy ta‘sir usullari xususida so‘z boradi. Shu bilan birga, ushbu masala yuzasidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan ayrim ilmiy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilib, mavzuning muammoviy jihatlari yoritiladi. Maqolada Temuriylar davri harbiy-ruhiy tayyorgarlik an‘analari va ularning zamonaviy harbiy-mafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liqlik masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

Amir Temurning buyuk sarkarda sifatidagi harbiy san‘atdagi yutuqlaridan biri – dushman ustidan g‘alabani nafaqat kuch va qurol bilan, ruhiy bosim o‘tkazish orqali qo‘lga kiritganidir. Ushbu jihatdan maqolada Sohibqiron harbiy strategiyasida o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan psixologik ta‘sir etish usul va vositalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, uning tomonidan harbiy sohada ilk bor qo‘llanilgan “yetti qo‘l” saflanishi, turli chalg‘ituvchi manyovr va harbiy orkestrning bor imkoniyatini o‘z qo‘shini jangovar holatini ko‘tarishga va dushmanni ruhan zaiflashtirishga qaratilishi janglar taqdirini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiritilgan.

Maqolada Amir Temur harbiy san‘atining o‘ziga xos psixologik qirralarini yoritish bilan birga uni zamonaviy harbiy konsepsiyalar bilan uzviy bog‘lashga qaratilgan fikrlar mavjud.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Sohibqiron, harbiy orkestr, manglay, chag‘dovul, “yetti qo‘l” operativ saflanishi, ruhiy ta‘sir etish.

Аннотация. В статье рассматриваются методы психологического воздействия, которые применял великий государственный деятель и военный стратег Амир Тему́р для разгрома многочисленных войск противника без боя или с минимальными потерями. При этом с историографической точки зрения изучаются некоторые научные исследования, проведенные в Узбекистане по данному вопросу, и



освещаются проблемные аспекты темы. В статье также уделяется внимание традициям военно-духовной подготовки эпохи Тимуридов и их связи с современными военно-идеологическими процессами.

Известно, что одним из достижений Амира Темура в военном искусстве как великого полководца было то, что он достигал победы над противником не только силой и оружием, но и применением психологического давления. В этой связи в статье рассматриваются методы и средства психологического воздействия, являющиеся уникальной чертой военной стратегии Сахибкирана. В частности, впервые примененное им в военной сфере построение «Семь кулов (корпусов)», различные отвлекающие маневры и использование всех возможностей военного оркестра для поднятия боеготовности своего войска и духовного ослабления противника являются одними из главных факторов, определяющих судьбу сражений.

В статье рассматриваются уникальные психологические аспекты военного искусства Амира Темура, а также идеи, направленные на его тесную связь с современными военными концепциями.

Ключевые слова: Амир Темура, Сахибкиран, военный оркестр, манглай, чагдавул, оперативное построение «Семь кулов (корпусов)», духовное влияние.

Abstract. The article discusses the methods of psychological influence used by the great statesman and military strategist Amir Temur to defeat numerous enemy troops without a fight or with minimal casualties. At the same time, some scientific studies conducted in Uzbekistan on this issue are studied from a historiographical point of view and the problematic aspects of the topic are highlighted. The article also pays attention to the traditions of military-spiritual training of the Timurid era and their connection with modern military-ideological processes.

It is known that one of Amir Temur's achievements in the military art as a great commander was that he achieved victory over the enemy not only by force and weapons, but also by using psychological pressure. In this regard, the article examines the methods and means of psychological influence, which are a unique feature of Sahibkiran's military strategy. In particular, the "Seven Kuls (Corps)" formation, which he first used in the military sphere, various diversionary maneuvers and the use of all the capabilities of the military orchestra to raise the combat readiness of his troops and spiritually weaken the enemy are among the main factors determining the fate of battles.

The article examines the unique psychological aspects of Amir Temur's military art, as well as ideas aimed at its close connection with modern military concepts.

Keywords: Amir Temur, Sahibkiran, military orchestra, manglai, chagdavlul, operational formation "Seven Kuls (Corps)", psychological influence.

KIRISH

Ma'lumki, buyuk davlat arbobi va benazir harbiy strateg Amir Temur nafaqat qo'shin soni yoki zamonaviy qurol-aslaha bilan, balki ruhiy ta'sir vositalarini mahorat bilan qo'llash orqali ham dushman ustidan g'alabaga erishgan.



U jangda qon to'kilishini kamaytirish, dushmanni jangga kirishishdan avval mag'lub etish maqsadida, askarlar va raqiblarga ta'sir o'tkazishning o'ziga xos usullarini ishlab chiqqan.

Amir Temur harbiy orkestrni - jangdagi yana bir ta'sirli "qurol" sifatida – qo'shin jangovar ruhini oshirish, askarlarning shayligi, ularda qo'rquvni yengish va g'animga nisbatan nafrat hissini kuchaytirish, shuningdek dushmanga kuchli ruhiy ta'sir o'tkazishda samarali qo'llagan. Ushbu orkestr nafaqat musiqa ijro etgan, balki qo'shinlarni boshqargan va harbiy harakatlarning ma'naviy hamrohiga aylangan.

Bugungi kunda ham harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini yuksaltirish masalasi o'z dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Amir Temur tajribasi bu borada biz uchun muhim ilhom va ibrat manbaidir.

TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy hamda tarixiy tahlil kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

Manbalar va adabiyotlar tahlili asosida Amir Temur o'z qo'shini va g'animga ruhiy ta'sir etish usullari ko'rib chiqiladi.

NATIJALAR

Harbiy tarixchi R.Samarovning "Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin" maqolasida¹, A.Timur davlat, chegara, hudud, siyosiy jarayon, urug'lar manfaati, xavf va tahdid, jangchi, qurol-aslaha, jangovar tayyorgarlik kabi konseptlar haqida aniq harbiy-siyosiy tasavvurga ega bo'lish bilan birga, ularni predmetlashtirish uchun tabiat hodisalariga o'xshatgan.

Mazkur tenglashtirish Amir Temur tomonidan strategiyani ishlab chiqishda, taktik usullarni tanlashda sarkardaning jangovar mahorati sifatida ifodalangan. Xususan, hujum uyushtirishni bo'ronga, raqibga ruhiy zarba berish va qo'rqitishni hamda unga bosim o'tkazishni momaqaldirroqqa, suvoriy va piyoda qo'shinlarning bir vaqtda yopirilgan holda harakatini amalga oshirishni esa selga qiyoslagan².

Uning fikricha, dushman qo'shini Sohibqiron qo'shinidan o'n barobar ko'p bo'lsa, hukmdor g'alabani ta'minlash uchun aqlini ishga solgan. Bu Oliy Bosh Qo'mondonning tafakkuri har jihatdan mukammal bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbekiston qurolli kuchlari akademiyasi ilmiy xodimlari va tarixchi olimlar hamkorligida yozilgan "Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati" to'plamida aytilishicha, bu o'rinda u musiqiy qurolni ishga solgan. Jang boshlangandan so'ng u o'zining harbiy orkestriga "Yolg'ondan ortga chekinish usuli"ni chalishni

¹ Samarov R.S. Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin // Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar. – 2021. – № 1(10). 3-11 – betlar.

² Samarov R.S. Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin // Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar. – 2021. – № 1(10). 3-11 – betlar.



buyurgan. Dushman esa bundan xabar topib, g'alaba qozonganiga ishongan. Ammo Amir Temur kechasi "shabixun" usulini qo'llashdan oldin g'anim askarining ruhini sindirish uchun kutilmaganda, to'rtta yirik orkestrining to'rtinchi bo'linmasiga "Hal qiluvchi jangga o'tish usuli"ni chalishni amr etgan. Momoqaldiroq tovushi singari jangovar gulduros sadolar ostida "Urho-ur" deya na'ra tortgan askarlarning kutilmagan hamlasidan shoshib qolgan g'anim parokanda bo'lib, jangovar jipsligini yo'qotgan va sarosimaga tushib, yetarli qarshilik ko'rsata olmagan¹.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida yozishicha, "tunukadin uy qilib tevalarga ortgan erdi, vaqti kelib, jang ichra kirgan vaqtlarida nag'mai qilib, tanburlarin cholib, imom Hasan va imom Husayn marsiyalaridin o'qur erdilar. Alarni ovozig'a askarlar mastu mustag'riq bo'lub, o'zlarin jangg'a urar erdilar"².

Rumga (bu yerda Usmonlilar davlati) qarshi jangda to'rt ming karnaychi, nog'ora va bolabon cholg'uchilar hamda xushovoz xonandalar ishtirok etishgan. Shundan ham bilsa bo'ladiki, Amir Temur askarlarning jangovar ruhini oshirishda butun boshli harbiy orkestr va ansambldan, ya'ni ko'p sonli cholg'uchi va xonandalarning mahoratidan hamisha o'rinli foydalangan.

Amir Temur va temuriylar zamonida musiqa sohasining turli yo'nalishlarida bir qator usullar yaratildi. Jumladan, ularni quyidagi tarzda klassifikatsiyalashimiz mumkin:

- ❖ «Chaqiriq va ogohlantiruvchi usullar»;
- ❖ «Harbiy va jang tartibi usullari»;
- ❖ «Mavsumiy marosim usullari»;
- ❖ «Saroy qonun va qoidalariga itoat etish usullari»;
- ❖ «Tantanavor bayram usullari»;
- ❖ «Ov sayli usullari»;
- ❖ «Diniy chaqiriq usullari» va b.

1391 yil 18 iyun kuni Qunduzcha daryosi bo'yida (Rossiya Federasiyasi Samara viloyati hududi) Amir Temur va To'xtamishxon qo'shiniga kuchli ruhiy ta'sir o'tkaza olgan. Bu jangda ikki tomondan 400 ming jangchi qatnashdi va bu o'sha davrda dunyoda bo'lib o'tgan eng katta janglardan biri bo'ldi.

Qo'shinning yetti qo'ldan (elementdan) iborat operativ saflanishi (jangovar tartibi) shaxsan Amir Temur tomonidan belgilangan bo'lib, bungacha hech bir sarkarda tomonidan qo'llanilmagan edi.

¹ R.Samarov, S.Axrоров, J.Xolmo'minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 226-bet.


² Toshkandiy Salohiddin. Temurnoma. / Nashrga tayyorlovchi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz. – Toshkent: 1991. 308-bet.



“Yetti qo‘l” operativ saflanishining markazida uch qo‘l, o‘ng va chap qanotlarda ikkitadan qo‘l joylashtirilgan edi. Markaz, ya‘ni asosiy kuchlar, old tarafidan manglay (avangard) bilan himoyalangan, markaz ketidan esa zaxira kuchlari – chag‘dovul (aryergard), u bilan birgalikda Oliy Bosh Qo‘mondon Amir Temurning qarorgohi (boshqaruv punkti) harakatlanar edi.

O‘ng va chap qanotlardagi qo‘shinlarning oldiga avangard ajratildi. Asosiy manglay qanotlardagi avangardlardan oldinroqda harakatlanar va dushman jangovar tartibini yorib o‘tish vazifasini bajarar edi. Chag‘dovul to‘satdan paydo bo‘ladigan zaxira vazifasini bajarish bilan birga Oliy Bosh Qo‘mondon qarorgohini qo‘riqlar va ortdan bo‘luvchi hujumlarni qaytarardi.

Chag‘dovul jang Amir Temur foydasiga hal etilishda asosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarama-qarshi tomonda To‘xtamishxon o‘z qo‘shinini besh qo‘lga bo‘ldi. Jangdan avval Amir Temur dushmanga nisbatan ruhiy ta'sirning o‘ziga xos usulini qo‘lladi – lashkarning bahodir va botirlari jangga piyoda bo‘lib kirdilar, chodirlar, xon qarorgohi sahroda (tekislikda, tepalikda emas) tikildi, gilamlar solindi – bu amallarning barchasi dushmanni mensimaslik, g‘alabani oldindan nishonlashga kirishilganidan darak berar edi. Natijada, jang boshlanmasdan dushman lashkariga ruhiy putur yetkazildi¹.



1391 yil 18 iyunda Qunduzcha daryosi bo'yidagi jangda tomonlarning

¹ R.Samarov, S.Axrarov, J.Xolmo'minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 90-91 – betlar.



operativ saflanishi (har bir qo'l alohida rang bilan ajratilgan)¹.

Harbiy tarixchilarning ta'kidlashicha, Qunduzcha jangida Sohibqiron o'z qo'shinlarini axloqiy-ruhiy holatini oshirib, jang avvalida dushmanning qarshilik ko'rsatishga bo'lgan irodasini sindirgan kuchli ruhiy ta'sir o'tkaza oldi². Xususan, R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo'minov va S.Sadriddinovlar tadqiqotida To'xtamishxonga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar jarayonida Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan strategiya dushman quvvatini yo'q qilishga emas, balki avvalo uning jangovar ruhini sindirish, qarshilik ko'rsatish istagini susaytirish va ruhiy tushkunlikka olib kelishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bilan ajralib turishi aytiladi. Bu kabi kompleks yondashuvlar jangovar harakatlar boshlanishidan oldin amalga oshirilgan bo'lib, Temur harbiy san'atining ruhiy-psixologik jihatlari o'ziga xos o'rin tutganini ko'rsatadi.

Mashhur o'zbek tarixchi-sharqshunosi va manbashunosi B.Ahmedovning "Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari" asarida yozilishicha, "Mo'g'ullar men turgan yer va lashkarlarim qay ahvolda ekanligini bilib kelish uchun oldimga elchi jo'natdilar. Elchini chalg'itish maqsadida lashkarimni ikki marta qayta-qayta uning oldidan o'tkaztirdim"³ yoki "Lashkarlarim besh oy davomida To'xtamishxonning orqasidan quvib yurgani sababli, ko'p vaqt och qola boshladilar. Chunonchi, bir necha kun boshmaloq o'ti, ov go'shti, sahro qushlarining tuxumi bilan kun kechirdilar. Lashkarni bunday og'ir ahvolga tushib qolganini eshitgan To'xtamishxon fursatdan foydalanmoqchi bo'ldi, chumoli va chigirtkadan ham ko'p lashkar bilan ustimizga yopirilib keldi... farzandlarim va nabiralarim huzurimga kelib tiz cho'kib, men uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklarini bildirmagunlaricha, sarkardalarim va askar boshliqlari jang qilishga ro'yxushlik bermadilar. Shu payt To'xtamishxonning bayroqdori bilan til biriktirib, jangni boshlaganimda va ikki tomon lashkari yuzma-yuz kelganda, bayroqdor bayrog'ini tuban qilishi haqida u bilan kelishib oldim. Jangu jadal o'ti osmonu falakka ko'tarilganda, chodirlar tikib, taom tayyorlashni buyurdim. Xuddi shu payt To'xtamishxonning bayrog'i tuban bo'ldi va To'xtamishxon sarosimaga tushib qoldi. U Jo'chi ulusini talon-tarojga tashlab, jang maydoniga orqa o'girib qochib qoldi"⁴.

Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, Amir Temur harbiy zehn va tajribasi bilan nafaqat jismoniy kuchni, balki ruhiy ustunlikni ta'minlashga ham alohida

¹ R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo'minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 90-bet.

² R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo'minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 95-bet.

³ Ahmedov B. Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: 2001. 19-20 – betlar.

⁴ Ahmedov B. Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: 2001. 24-bet.



e'tibor qaratgan. U harbiy razvedka, josuslik, ma'lumot to'plash va yollash kabi vositalar orqali dushmanning ichki holatini aniqlash va unga ta'sir o'tkazishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan. Shu tufayli, Amir Temurning harbiy siyosat va ruhiy ta'sirga asoslangan yondashuvi zamonaviy harbiy-psixologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu jihatdan, Temur dushman va o'z qo'shini ruhiy holatini o'rganishda harbiy razvedka xizmatini yo'naltirishga muhim ahamiyat qaratgan.

Arab tarixchisi Ibn Arabshohga ko'ra, harbiy razvedka asosan qo'shinlarning ruhiy holati, bo'linmalarning joylashuvi, qudrati, dushman kim bilan hamkorlik qilayotgani, davlat sarhadlarida yuz berayotgan voqea hodisalar haqida muttasil xabar yuborib turish vazifasini bajarib kelgan.

Ichki razvedka – mamlakatdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlikni saqlash, qo'shinlar ichidagi ruhiy holat, ularning kayfiyati, ahvolidan xabardor bo'lib turish maqsadida tashkil etilgan.

Tashqi razvedka – ayg'oqchilar dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, hunarmand, sayyoh, qalandar, munajjim, darvesh, jodugar niqobi ostida faoliyat ko'rsatgan va ulardan yuksak bilim, uddaburonlik va sezgirlik talab etilgan. Ular asosan mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat, harbiy salohiyati, mamlakatga kelishni istagan xorijlik turli olimlar haqida ma'lumotlar, mintaqaning yaqin va uzoqligiga qarab xabarlar kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy Amir Temurga yetkazib turilgan.

Razvedkachilar (ayg'oqchi) dushman qo'shinining soni, qurollari va ruhiy xolati, mamlakat aholisining kayfiyati, mansabdor shaxslarning turmush tarzi va odatlari to'g'risida, shaharlarning qaysi darvozasidan kirish osonligi, o'z qo'shinini dushmanga oshkor etmay joylashtirish mumkin bo'lgan manzillar, hudud relyefi haqidagi aniq ma'lumotlarni, ba'zi hollarda aniq tarhlar (sxemalar – kartalar) yetkazib berishgan¹.

Sharofiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylarning qoldirgan ma'lumotlari ham bunga misol bo'la oladi. Jumladan, To'xtamishning Eron va Kavkazortiga qisqa muddatli chopqinlari faqatgina katta to'qnashuv oldidan qarshi tomonning javob reaksiyasini razvedka qilish, ya'ni "tomirini bosib ko'rish" edi. Shuning uchun ham bunday vaziyatni to'g'ri anglagan Sohibqiron To'xtamishning Eronni bosib olishini oldini olgan holda 1386 yilning qishida Samarqanddan chiqib o'zining "uch yillik yurishi"ni boshlaydi².

Amir Temur turli mintaqalardan kelgan, so'zlashuv tili va ijtimoiy kelib chiqishi har xil bo'lgan elatlardan tashkil topgan harbiy bo'linmalarda ijtimoiy-psixologik muhitning sog'lomligiga ham katta e'tibor qaratgan. Natijada harbiy

¹ Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. – Toshkent: 2019. II qism. 399-400 – betlar.

² Ali Yazdiy. Zafarnoma, 1997. 105–106 b., Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma, 1996. 133-bet.



jamo'a nafaqat jang taqdirini belgilashda, balki sodir bo'lishi muqarrar bo'lgan xavf va xatarlarni bartaraf etishda ham jonbozlik ko'rsatgan¹.

Sohibqiron askarlarining o'zaro munosabatlarda aniq me'yorlarga amal qilishi masalasiga ham alohida urg'u berib, "Navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilish tuzuki"da "Haqiqiy navkar bilsinki, u agar (qo'l ostida) o'z navkari bo'lgan taqdirda undan nimani talab qilsa, uning begi ham undan aynan shu narsani kutadi²", deb ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, harbiy soha tili bilan ko'rsatib o'tganda "askar – askar", "askar – o'nboshi", "askar – yuzboshi", "askar – mingboshi", "o'nboshi – yuzboshi", "yuzboshi – mingboshi", "mingboshi – sarkarda" kabi harbiy munosabatlarda "...nimani talab qilsa, uning begi ham undan aynan shu narsani kutadi" deya, vazifani aniq belgilab berish bilan birga, to'g'rilikka amal qilinishi lozimligini buyurgan³.

Shu bilan birga, Amir Temur har bir yurishdan oldin o'z armiyasi ko'rigini o'tkazib, jangchilarining shayligi va ruhiy holatini o'rgangan.

Temurshunos olim H. Dadaboevning "Amir Temurning harbiy mahorati" ilmiy asarida yoritilishicha, o'rdugohda Oliy Bosh Qo'mondonning borgohi (chodiri) tikilgan va u turli rangdagi tug' (gerb) hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqtda lashkargohga yetib kelgan askarlar qat'iy tartib va intizom bilan o'z joylarini egallagan va yurish oldidan o'tkaziladigan an'anaviy harbiy ko'rikka puxta tayyorgarlik ko'ra boshlagan⁴.

Odatga binoan borgoh oldida harbiy cholg'uchilar askarlarni mardlikka, matonatga rag'batlantiruvchi, ularning jangovar ruhini ko'taruvchi kuylarni tinimsiz chalib turishgan⁵.

Jangovar harakatlar boshlashdan avval, dushmanning qarshilik ko'rsatishga bo'lgan ishtiyoqi va kuchlarini zaiflashtirish maqsadiga erishish, uni jaholat va razolat botqog'iga botirish va ruhiy tushkunlikka tushirish uchun dushman tomonidagi zodagonlar va qo'mondonlarni pul evaziga sotqinlikka og'dirish, aholida mag'lubiyatga moyillik kayfiyati yaratish va Amir Temur qo'shinlarini mag'lub qilish xomxayol ekanligi to'g'risida mish-mishlar tarqatish, vahima ko'tarish amalga oshirilardi.

¹ Rahmonov D. Amir Temur harbiy jamoasining sotsiodinamikasi // Amir Temurning harbiy san'atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami. 2021. 106-109 – betlar.

² Temur tuzuklari. // Forschadan A. Sog'univ va H. Karomatov tarjimasi. – Toshkent: 1991. 87-bet.

³ Sadriddinov S.R. Harbiy psixologiyada Amir Temurning sarkardalik faoliyatini o'rganish: metodologik yondashuv // Amir Temurning harbiy san'atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami, 2021. 68-69 – betlar.

⁴ Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: 1996. 14-bet.

⁵ Dadaboev H. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi, 2021. 45-bet.



Sarkardaning “yuksak tafakkuri” u tomondan qo‘llangan harbiy strategiyada, raqibga psixologik ta‘sir ko‘rsatish qobiliyati, jangovar vaziyatni to‘g‘ri baholay olish iqtidorida ifodalangan. Xususan, Amir Temurning quyidagi so‘zlari mazkur fikrga dalil bo‘la oladi: “...epchillik, uddaburonlik qilib, dushman lashkar to‘plab ulgurmasdan burun, ularga zarba berib, to‘zitib yubormoqni munosib ko‘rdim”¹.

Bundan tashqari, ba‘zi manbalarda Sohibqiron o‘zining harbiy san‘atida qo‘rquv va dahshat uyg‘otish, targ‘ibot, qo‘rquv madaniyati, kuch va shafqatsizlikni namoyish etish, o‘z bosqinlarini oqlash uchun diniy va siyosiy argumentlardan foydalanish kabi turli xil ruhiy-psixologik ta‘sir vositalaridan foydalangani to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi.

Uning vahshiylik va zolimlikdan foydalangan holda dushmanlarini ruhiy tushkunlikka solib, jangsiz taslim bo‘lishga majbur qilgani, shaharlarni vayronaga aylantirgani, qo‘rquv va qarshilikni bostirish uchun ommaviy qatlarni uyushtirgani hamda o‘z kuchini ko‘rsatish va itoatsizlik qilganlarga dahshat uyg‘otish uchun inson boshlaridan mezanalar (minoraning yuqori qismi) bunyod etgani aytiladi. Ibn Arabshohning yozishicha, “Temur Halab shahrini egallagach, uning haybati vahimasi (odamlar) qalblarini qamrab, savlati uchqunlari har tarafga tarqaldi. So‘ngra Temur shunchalik nafslami halok qilgani bilan kifoyalanib qolmasdan, xatto kallalardan mezanalar bunyod qildi”².

Biroq, Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida hodisa ishtirokchisi sifatida Halab shahri fathi xususida quyidagilarni bayon etgan: “Amir Sohibqiron o‘zi shaxsan jangga kirishdi. Halabliklar uning askarlari ko‘pligini ko‘rgach, ojiz qoldilar va qochishdan boshqa chora topmadilar. G‘olib lashkar ular ketidan ot qo‘ydilar. Otlig‘ va piyodalardan shunchalar ko‘p qatl etdilarki, o‘liklardan tepalar ko‘tarildi, Halab ko‘chalariyu darvozasi o‘liklarga to‘ldi, shu qadarki, otliqlar o‘liklar boshini bosib o‘tardilar”³.

Halab fathi masalasida mazkur manbalardagi ma‘lumotlarni solishtirishda Ibn Arabshoh ona vatani Shomni (Suriya) istilo qilgan va oilasini Samarqandga majburiy olib ketgan Sohibqironidan norozi bo‘lganligi tufayli bevosita voqea guvohi bo‘lmasada salbiy hissiyotga berilgani, uning Amir Temur tomonidan mamlakatlar va shaharlarni zabt etishda xunrezliklarga yo‘l qo‘ygani haqida bir muncha bo‘rttirilgan xabarlar keltirganini e‘tiborga olish zarur.

Dushmanga psixologik bosim o‘tkazish va o‘z armiyasining jangovar ruhiyatini ko‘tarish borasida o‘rta asrlar buyuk sarkardasi hisoblangan Chingiz-xonga nisbatan Sohibqiron tizimli va ancha samrali mexanizmlarni ishlab chiqa olgan. Albatta, Amir Temur asosiy ruhiy ta‘sir etish mexanizmlarini Chingizxon

¹ Ahmedov B. Amir Temur vasiyatları, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: 2001. 24-bet.

² Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Toshkent: 2019. I qism. 211-bet.

³ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: 1996. 295-bet.



va mo'g'ullardan o'zlashtirgan, biroq ularni har tomonlama boyitishga va yangilari bilan to'ldirishga erisha olgan.

Shuningdek, Sohibqiron raqiblarini qo'rquvga solish va o'z armiyasi jangovar ruhini ko'tarish maqsadida o'zining g'alabalari va kuchi haqida ma'lumot tarqatish bilan birga jangchilarni doimiy ravishda rag'batlantirishni yo'lga qo'ygan. Masalan, jangda bahodirlik ko'rsatib g'alaba qozongan amirlar uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Qaysi amir biron qo'shinni yengsa yoki viloyatni fath etsa, u tug', nog'ora, bahodir, botir martabasi, davlat kengashlariga kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan¹. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lib, jangda u ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala va adolatli bo'lishi lozim edi.

Amir Temur o'z tuzuklarida: "Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: birinchisi – faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar; ikkinchisi – uni davlat va saltanat sherigi bilib, kengash majlislariga kirgizsinlar; uchinchisi – unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga bo'ysunsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to'ra (xon o'g'li)ni yengsa yoki biron amirzodaga shikast yetkazsa, yo biror o'lka xonini mag'lub etsa, uni yuqoridagi yo'sinda mukofotlasinlar"² deb ko'rsatgan.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur jangovar harakatlar boshlanishidan oldin dushmanning ruhiy bardoshini sindirish, qarshilik ko'rsatish salohiyatini zaiflashtirish va qo'shinlar safida ruhiy tushkunlik uyg'otishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirgan. Jumladan, dushman safidagi zodagonlar va qo'mondonlarni moliyaviy vositalar orqali o'z tomoniga og'dirish, mahalliy aholi orasida mag'lubiyat kayfiyatini shakllantirish, Temur lashkarini mag'lub etish imkoni yo'qligi haqida mish-mishlar tarqatish hamda ommaviy vahima chiqarish kabi tadbirlar uning harbiy-psixologik strategiyasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Amir Temur o'z qo'shinining doimo tartibli, ahloqiy-ruhiy holati yuqori va jangga shay bo'lishi uchun ularning ruhiy-psixologik tayyorgarligiga e'tibor bergan. Bu vositalar unga nafaqat janglarda g'alaba qozonish, balki katta hududlarni nazorat qilish va turli xalqlar ustidan hokimiyatni saqlab qolish imkonini yaratgan.

¹ Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: 1996. 16-bet.

² Temur tuzuklari. // Forschadan A. Sog'unij va H. Karomatov tarjimasi. – Toshkent: 1991. 80-81 - betlar.



MUHOKAMA

Ta'kidlash joizki, Sohibqironning harbiy san'ati va ruhiy ta'sir etish usullarini yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oliy harbiy bilim yurtlari tinglovchilariga harbiy tarix fanida o'qitish, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirishda keng foydalanish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Umuman olganda, Amir Temur dushmanni jangsiz yoki kam talafot berish orqali yengish maqsadida o'z davrida turli ruhiy ta'sir etish usullaridan ilg'or foydalangan yetuk sarkarda bo'lgani haqida manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularning asosiylari zamonaviy tarixchi-sharqshunoslar ilmiy ishlarida aks etgan.

Biroq, Sohibqiron, uning harbiy san'ati va ruhiy ta'sir etish usullarini yozib qoldirilgan manbalar asosida to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi. Shuning uchun bunday mavzudagi ilmiy ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amir Temurning sarkardalik mahorati bilan qo'llagan ruhiy ta'sir etish usullarini ilmiy o'rganish asosida erishilgan natijalardan harbiy ta'lim amaliyotida turli toifadagi komandirlarni tayyorlashda, qo'shnlarning jangovar ruhiyati va shayligini oshirishda, jangchi shaxsiga qo'yiladigan talablar (harbiy psixologiyada muhim harbiy-kasbiy sifatlar deb yuritiladi), har qanday vaziyatda komandirlik qobiliyatini, tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishda tarixiy-ta'limiy manba sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Samarov R. Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin // Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar. – 2021. – № 1(10).
2. Samarov R., Axrorov S., Xolmo'minov J., Sadridinov S. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. Mas'ul muharrir: Bo'ronov M. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2022.
3. Toshkandiy Salohiddin. Temurnoma. / Nashrga tayyorlovchi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz. – Toshkent: "Cho'lpon", 1991.
4. Ahmedov B. Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: "G'afur G'ulom", 2001.
5. Ibn Arabshoh. "Amir Temur tarixi" Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur. I-II qismlar / Arab tilidan tarj. va izohlar, so'z boshi muallifi U.Uvatov; Mas'ul muharrir A.O'rinboev. – Toshkent: "Fan", 2019.
6. Yazdiy Sharafuddun Ali. Zafarnoma // So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi va nashrga tayyorlovchilar: A. Ahmad, H. Bobobekov; Mas'ul muharrir B. Eshpo'latov. Nashrlar va matbaachilar guruhi: I. Shog'ulomov va boshqalar // Toshkent: "Sharq", 1997.



7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan o'giruvchi Yunusxon Hakimjonov; Mas'ul muharrir A.O'rinboev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1996.
8. Rahmonov D. Amir Temur harbiy jamoasining sotsiodinamikasi // Amir Temurning harbiy san'atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2021.
9. Temur tuzuklari. // Forschadan A.Sog'uniiy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahrir. ostida/. – Toshkent: “G'afur G'ulom”, 1991.
10. Sadriddinov S.R. Harbiy psixologiyada Amir Temurning sarkardalik faoliyatini o'rganish: metodologik yondashuv // Amir Temurning harbiy san'atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2021.
11. Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. Mas'ul muharrir: Azizxon Qayumov. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1996.
12. Dadaboev H.A. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi // Amir Temurning harbiy san'atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2021.

OTABEK NAYIMOV

PhD in Political Science, UWED, Alfraganus University

Ibn Khaldun and power dynamics: A geopolitical relevance of the Muqaddimah

Annotation. *This article is an attempt to study the enduring legacy of Ibn Khaldun, who, among other fields, contributed significantly to the development key political and geopolitical theories. In doing so, the author investigates the contemporary relevance of his geopolitical concepts, such as the Asabiyyah, the cyclical nature of the rise and fall of civilizations, power dynamics, and the sources of societal and political changes. In the article, the author adopts a critical stance about the negative impact of the prevalent Eurocentric assumptions in the way of genuine scholarly research and calls for a more inclusive and objective study of other non-European contributions. Finally, the growing significance of understanding Ibn Khaldun's rich legacy is underlined, including the shifting power dynamics, major factors driving geopolitical changes, and its societal and economic foundations in our increasingly confrontational and geopolitically uncertain times.*

Key words: *Asabiyyah, power dynamics, geopolitical transformations, cyclical nature of civilizations, societal and economic changes.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshqa sohalar qatori muhim siyosiy va geosiyosiy nazariyalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Ibn Xaldunning boy merosini ilmiy tadqiq etishga bo'lgan bir urinishdir. Maqolada uning “Asabiya”, sivilizatsiyalar taraqqiyoti va inqirozining siklik tabiati, kuchlar dinamikasi, ijtimoiy va siyosiy*